

DER ZUSAMMENGESETZTE SATZ

Andijon davlat chet tillari instituti

Xorijiy til va adabiyoti nemis tili yoʻnalishi

402-guruh talabasi **Toʻlashboyeva Dilshoda**

Ilmiy rahbar **Odinaxon Ismanova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoʻshma gaplarning tuzilishi, turlari va ularning grammatik xususiyatlari yoritilgan. Qoʻshma gaplarning oddiy va murakkab shakllari, ularni tashkil etuvchi boʻlaklar va ularning oʻzaro bogʻlanish usullari haqida misollar bilan izohlar berilgan. Maqola tilshunoslikda qoʻshma gaplarni oʻrganish va ularni amaliy nutqda qoʻllash uchun foydalidir.

Kalit soʻzlar: qoʻshma gap, grammatik tuzilma, bogʻlovchi, nutq birliklari, sintaksis

Annotation: This article explores the structure, types, and grammatical features of compound sentences. It provides explanations and examples of simple and complex compound sentences, their components, and ways they are connected. The article is useful for studying compound sentences in linguistics and applying them in practical speech.

Keywords: compound sentence, grammatical structure, conjunction, units of speech, syntax

Аннотация: В данной статье рассматриваются структура, виды и грамматические особенности сложных предложений. Приводятся пояснения и примеры простых и сложных сложных предложений, их составных частей и способов их связи. Статья полезна для изучения сложных предложений в лингвистике и их применения в устной речи.

Ключевые слова: сложное предложение, грамматическая структура, союз, единицы речи

Qo'shma gap — tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap; gapning struktural jihatdan alohida bir turi. Qo'shma gap tuzilishi va qurilish materialiga ko'ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmalari bo'lsa. Qo'shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo'shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topadi. Bir qancha turkiy tillarda, jumladan. o'zbek tilida, qo'shma gaplar qanday mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va intonatsiyasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi: bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gap

Qismlarining o'zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bo'g'langan qo'shma gap deyiladi. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro birlashtiruv bog'lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba'zan... ba'zan, hali...hali, bir... bin), teng bog'lovchi vazifasidagi -da, -u (-yu), na... na yuklamalari., shuningdek, bo'lsa, esa yordamchilari vositasida bog'lanadi.

Shunga ko'ra bog'langan qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Birlashtiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
2. Zidlov bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.
3. Ayiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

4. Teng boglovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan boglangan qo‘shma gap.

5. Bo‘lsa, esa yordamchi sozlari vositasida tuzilgan boglangan qo‘shma gap.

O‘zbek tiliga doir mavjud darslik va qo‘llanmalarda ergash gaplar (ergash gapli qo‘shma gaplar) mazmun va vazifalariga ko‘ra 14 turga ajratiladi. Qo‘shma gap va uning turlari, qo‘shma gaplarning tabiati masalalari rus va yevropa tilshunosliklari qatori o‘zbek tilshunosligida ham keng, atroflicha o‘rganilgan.

Tarkibidagi predikativ birliklar o‘zaro bog‘lovchi yoki bog‘lovchi vazifasidagi so‘z yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan Qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma gap hisoblanib, bunday qo‘shma gaplarda ohang muhim rol o‘ynaydi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar aksar hollarda bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar bilan o‘xshash, munosabatdoshday ko‘rinsada, ular ana shu turdagi gaplarning bog‘lovchisiz varianti emas, balki qo‘shma gaplarning alohida turi hisoblanadi: „Saodatxon eshikni ochib yubordi, uyga muzday kuz havosi kirdi“ (S.Zunnunova). „Sultonmurod o‘zini chetga olishga tirishdi, xalq to‘lqini uni surib ketdi“ (Oybek).

Nemis tili va o‘zbek tilidagi o‘xshashliklar. Ikkala tilda ham qo‘shma gaplar ikkita yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topadi. Har ikkala til qo‘shma gaplarni teng bog‘langan (yondosh) va bo‘ysunuvchi (qarama-qarshi) gaplarga ajratadi. Har ikki tilda bog‘lovchi so‘zlar (konjunktsiyalar) yordamida gaplar bog‘lanadi.

O‘zbekcha va nemischadagi qo‘shma gaplar farqlari:

1. So‘z tartibi (Wortstellung): O‘zbek tilida so‘z tartibi erkinroq: ega + kesim + qolgan bo‘laklar.

Misol: Men kasal bo‘lganim uchun uyda qoldim.

Nemis tilida esa qat’iy tartib bor: bo‘ysunuvchi gaplarda fe‘l oxiriga chiqadi.

Misol: Ich blieb zu Hause, weil ich krank war.

2. Bog‘lovchilar ta’siri (Einfluss der Konjunktionen): O‘zbek tilida bog‘lovchilar so‘z tartibiga kuchli ta’sir qilmaydi.

Nemis tilida esa ba’zi bog‘lovchilar (masalan: weil, dass, obwohl) gap tuzilishini butunlay o‘zgartiradi – ular fe’lni oxiriga suradi.

3. Vergul (Komma): O‘zbek tilida vergul ishlatilishi ixtiyoriy yoki uslubga bog‘liq.

Nemis tilida esa har bir qo‘shma gapning qismlari vergul bilan ajratilishi majburiy.

4. Fe’l joylashuvi (Position des Verbs): O‘zbek tilida kesim (fe’l) gap oxirida yoki oldida kela oladi. Nemis tilida asosiy gapda fe’l ikkinchi o‘rinda, bo‘ysunuvchi gapda esa oxirida turadi.

5. Sintaktik qat’iylilik (Grammatikal aniqlik): O‘zbek tilida gaplar mazmunan tushunarli bo‘lsa yetarli. Nemis tilida esa grammatik qoidalar (bog‘lovchilar, fe’l pozitsiyasi, vergul) buzilsa, gap noto‘g‘ri hisoblanadi.

O‘zbek va nemis tillaridagi qo‘shma gaplar mazmunan o‘xshash, lekin grammatik qurilishi bo‘yicha katta farqlarga ega. Ayniqsa, nemis tilini o‘rganayotganda fe’lning joylashuvi va bog‘lovchi so‘zlarga alohida e’tibor berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Urunbayevna, I. O. (2024). ILM-FANDA TERMINLAR OLAMI. XALQARO ILMY-AMALIY KONFERENSIYASI , 1 (1), 187-189
2. Burxonovich, A. O. (2024). ZOOFRAZEMALARNI TADQIQ QILISHDA DA TISHKINA TAHLIL METODI (RUS VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). PEDAGOG, 7(9), 131-134.

3. Azamov, O. (2023). ZOOFRAZEMALARNI NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH TAMOYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 100-106.
4. Urunbayevna, I. O. (2025, March). TA’LIM JARAYONLARIDA TADQIQOT VA INNOVATSIYALARNI INTEGRATSIYA QILISHNI MATEMATIKA VA TERMINOLOGIYAGA CHAMBARCHAS BOGLIQLIGI. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 2).
5. Dadajonova, S., & Bozorova, G. (2025). CORRECT PRONUNCIATION FORMATION IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS (USING GERMAN AS AN EXAMPLE). *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 250-253.
6. Muxtarovna, Q. N. (2025, March). NEMIS VA O ‘ZBEK TILLARI MISOLIDA KOMPLIMENTNING TILSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIKDAGI O ‘RNI. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 2).
7. ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, (2), 85-99.
8. Akbaraliyeva, N.G. (2024). TARJIMADAGI TIL VA MADANIYAT MUVOFIQLIKLARI. *PEDAGOG* , 7 (9), 135-137.
9. Urunbayevna, I. O. (2025, March). TA’LIM JARAYONLARIDA TADQIQOT VA INNOVATSIYALARNI INTEGRATSIYA QILISHNI MATEMATIKA VA TERMINOLOGIYAGA CHAMBARCHAS BOGLIQLIGI. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 2).